



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

O'ZBEKISTON XALQIGA QURBON HAYITI TABRIGI

Muhtaram vatandoshlar!

Siz, azizlarni, yurtimizdagi barcha mo'min-musulmonlar, butun xalqimizni bugungi ulug' ayyom – muborak Qurbon hayiti bilan chin qalbidan samimiy muborakkod etaman.

Tinchlik, mehr-oqibat va saxovat bayrami – Iyd al-Adha muqaddas dinimiz mohiyatida mujassam bo'lgan ezgu g'oya va amallarni yaqqol ifoda etgan holda, hozirgi kunda mamlakatimizda insonparvarlik ruhida olib borilayotgan keng ko'lami islohotlarimizning ma'no-mazmuniga uyg'un va hamohang ekani bilan barchamiz uchun yanada aziz va qadri bo'lib bormoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, ko'pmillatli yurtimizda osoyishtalik, do'stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, yordamga muhtoj insonlar, muhtaram nuroniyalar, xotin-qizlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, mahalla va xonadonlarni obod qilishga qaratilgan ishlarimizda Qurbon hayitining ezgu an'analari kuch-g'ayrat va ilhom manbayi bo'lib xizmat qilayotganini ta'kidlash lozim.

Keyingi yillarda O'zbekistonning qadimiy tarixi va boy madaniy qadriyatlarini, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning ilmiy-ma'rifiy merosini, islom dinining asl mohiyatini o'rganish va targ'ib etish borasidagi ishlarimiz yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Buni yaqinda xalqimiz va yurtimiz meh-

monlari uchun o'z eshiklarini ochgan azim poytaxtimizdagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi, Marg'ilon shahridagi Burhoniddin Marg'inoniy ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasi kabi Yangi O'zbekiston mo'jizalari bo'lgan noyob obidalar misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Hech shubhasiz, bularning barchasi Yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lidagi muhim tarixiy qadamlar bo'lib, ular bizni yanada katta safarbarlik bilan harakat qilishga da'vat etadi.

Hurmatli do'stlar! Yurtimizda diniy e'tiqod erkinligini ta'minlash uchun yaratib berilayotgan qulay sharoitlar tufayli ushbu munavvar kunlarda 15 mingdan ziyod vatandoshlarimiz muqaddas haj amallarini ado etmoqda. Bu yil tariximizda ilk marta "Prezident hojilari" dasturi joriy etilganidan xabaringiz bor. Ushbu dasturga muvofiq, el-yurtimizga sidqidildan xizmat qilgan 100 nafar yurtdoshimiz – ulamolalar, nuroniyalar, mahalla faxriylari hamda ularning oila a'zolari muborak haj safariga borish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Mana shu saodatli onlarda barcha hojilarimizni Qurbon hayiti bilan qutlab, ibodatlarini qabul bo'lishini Alloh taolodan so'rab qolamiz. Muqaddas ziyoratdan qaytib keladigan bu hurmatli yurtdoshlarimiz ezgulik va ma'rifat targ'ibotchi-

lari sifatida oila va mahallalarimizda, butun jamiyatimizda olib boriladigan ma'naviy-tarbiyaviy ishlarda faol ishtirok etadilar, deb umid qilamiz.

Fursatdan foydalanib, dunyoning turli mamlakatlaridagi musulmon do'stlarimiz va hamkorlarimizga ham qizg'in qutlovlarimizni yo'llab, ularga tinchlik, ravnaq va farovonlik tilab qolamiz.

Aziz vatandoshlar!

Qurbon hayiti munosabati bilan bu yil ham bir necha kundan iborat dam olish kunlari belgilandi. Bayram kunlarida ham elimiz xizmatida, Vatani sarhadlarida o'z vazifasini mas'uliyat bilan ado etayotgan yurtdoshlarimizga alohida minnatdorlik bildiramiz.

Chet ellarda tahsil olayotgan va ishlayotgan vatandoshlarimizni ham samimiy tabriklab, ularning barchasiga ezgu tilaklarimizni izhor etamiz.

El-yurtimizni shunday qutlug' ayyomga tinchlik-omonlikda va hamjihatlikda yetkazgani uchun Alloh taolaga hamd-u sanolar bo'lsin!

Ilohim, Yaratgan parvardigor el-yurtimizni o'z panohida asrasin!

Qurbon hayiti barchamizga muborak bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

FAKT


✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev suv fondi yerlari hamda sel suvlaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

✓ Markaziy bankning 2026-yil I chorak bo'yicha pul-kredit siyosati shahida qayd etilishicha, yalpi ichki mahsulotning real o'sishi 8,7 foizni tashkil etgan.

✓ 2025-2026-o'quv yilida barcha umumta'lim maktablarini 472 ming nafar o'quvchi tamomladi, ularning 11 ming nafardan ziyodi oltin va kumush medalga loyiq ko'rilgan.

✓ Mo'g'ulistonning Ulan-Bator shahrida parataekvondo bo'yicha o'tkazilgan Osiyo chempionatida mamlakatimizning matonatli sportchilari 2 ta oltin, 5 ta kumush va 6 ta bronza medalini qo'lga kiritdi.

YANGI O'ZBEKISTON MODEL



YURT QAYG'USIDA KECHAYOTGAN KUNLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markazida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2025-yildagi sarmahsul faoliyati aks etgan "Yurt qayg'usida 365 kun" nomli kitob taqdimotiga bag'ishlangan adabiy tadbir tashkil etildi.

(Davomi 2-sahifada) ➔

TAASSUROT

MA'NILAR MAXZANI



2026-yilning 22-may kuni muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Milliy kitobxonlik harakati"ga yo'llanma berib, muhtasham ma'naviy harakatga oq yo'l tiladi.

1

Baland va hashamatli binolarni mohir ustalar quradi; tirik odamlar yashnatadi. Ayni damda bunday uylarga olimlar, oqillar, donishmandlar va ularning kitoblari nur olib kiradi.

"Milliy kitobxonlik harakati"ga doir va tarixiy hujjatga ko'ra kitob o'qiydiganlar soni tubdan ko'payishi tabiiy. Chunki bu harakatda kitob o'quvchilari uchun moddiy manfaat ham ko'zda tutiladi. Harakat uchun umumiy hisobda 240 ming dollar ajratiladi. Bosh sovrin sohibi 50 ming dollar bilan taqdirlanadi. Qo'shimcha ravishda ushbu harakatning "Eng faol o'qituvchi", "Eng kitobxon maktab", "Eng kitobxon oila" va e'tiborga molik boshqa jihatlar ham alohida taqdirlanadi.

(Davomi 2-sahifada) ➔

MULOHAZA

TAVALLUD KUNLARI O'TDI...

Chorak asr avval Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasida ishlar edim. Bir kuni Belorussiya elchisi telefon qilib, "Biz mamlakatingiz bosh ma'rifaxonasi bo'lgan Milliy kutubxonaning katta zalida ulug' shoirlarimiz Yanka Kupala bilan Yakub Kolas yubileyini nishonlamochi edik", deb qoldi.

Albatta, bu iltimos o'rnatiladi. "Biron o'zbek adabiyotshunosi ham qatnasha", degan so'rovni yerda qoldirmay, taniqli olim Laziz Qayumovdan shu anjumanda bir ma'ruza bilan chiqishini so'radik. Domla keldi, kelib shunday bir o'tashin nutq so'zladiki, Belorussiya elchisi hurmatiga kelgan Ozarbayjon, Ukraina, Rossiya, Tojikiston, Hindiston, Qirg'iziston-u Qozog'iston, Pokiston... elchilari anjuman tugashi bilanoq Laziz akani o'rab olib, tashrifnomasini so'rab, elchixonalariga chorlashgani, domlani o'z yurtlariga taklif qilishgani yodimda.

Oradan ikki oy o'tdimikin, ukrain shoiri Taras Shevchenkoning yubileyini ham zo'r shukuh bilan o'tkazgan edik.

(Davomi 4-sahifada) ➔

VATAN MANZUMASI



Roziman, rizoman, o'la-o'lguncha

Xalqim deb o'ldim.

Xalqim nima bo'lsa, men o'sha bo'ldim,

Yuragim, bo'g'ilma, o'rtanma buncha!

O'zimga xiyonat qildim-u aksar,

Xalqimga xiyonat o'ylaganim yo'q.

Mening yuragimni teshib o'tdilar

Xalqimga otilgan talay-talay o'q.

Qancha yo'llar bosdim, gohida toldim,

Lekin xalq nomiga yuqtirmadim gard.

Faryod solar chog'da jim bo'la oldim,

Xalqim dardi edi dil o'rtagan dard.

Xalqim etagida yetdim voyaga,

Xalq bilan kuldim.

Bardoshim so'z bermas, deyman, qoyaga...

Roziman, o'lguncha xalqim deb o'ldim...

MIRTEMIR

2026-YIL - MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

OYDIN KO'CHALAR

"Do'stlik" ordeni sohibi Muxtor ILHOMOV bilan Toshkent shahridagi "Uchtepa" mahallasi ko'chalarida kechgan gurgung

ISHONCH KO'CHASI

Assalomu alaykum! Mahallamizga xush kelibsiz! 27 yildan buyon shu mahalla fuqarolar yig'ini raisimani. Saylanadigan lavozimga qayta-qayta loyiq ko'rilishimga hamkasblarim ham

havas, ham hayrat bilan qaraydi. Buning siri bor-yo'qligiga qiziqadi. Bilasizmi, mahalla raisligi amal emas, xalqqa xizmatkorlik. Kamida to'rt-besh oilaning og'irini yengil qilmasam, fuqarolar murojaatlariga yechim topmasam, yoshlar

bilan muloqot qilmasam, o'sha kunni yashalmagan kun, deb hisoblayman.

Bunga idoraning ichki ishlarini ham qo'shamiz.

(Davomi 3-sahifada) ➔

OGOHLIK

MANFAATPARASTLIK EPIDEMIYASI

JAMIYATNI YEMIRUVCHI XATAR

Avval birga ishlashgan sobiq hamkasbim bilan uchrashib qoldik. Hol-ahvol so'rashib, o'tgan-ketgandan gaplashdik. Suhbat aylanib, xorijiy tajriba haqidagi gaplarga ulandi.

– Yaqinda xorijiy axborot markazlarining tajribasini o'rganib, amaliyotga joriy qilishni boshladik, – dedim.

– Zo'r-ku, – dedi u. – Xo'sh, bundan sizga nima naf?

Bu savoldan kutilayotgan muddaoni yaxshi anglamay, ajablandim.

– Maoshingiz oshadimi? Unvon olasizmi? Karyera qilasizmi? – dedi suhbatdoshim luqmasiga aniqlik kiritib.

– Unisini bilmayman, – dedim. – Lekin ishlar samarali bo'lsa, ko'pchilikka foyda beradi.

(Davomi 5-sahifada) ➔



Boshlanishi 1-sahifada.

Mazkur kitob mazmun-mohiyati, uning chop etilish zaruratiga to'xtalishdan oldin bir jihatga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Donishmand xalqimizda **viydonan qilingan mehnatdan – najot, adolatdan – yutuq va zafar hosil bo'ladi**, degan purma'no naql bor. Haq gap. Buni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida xalqimiz orzu qilgan Yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan nihoyatda keng ko'lami tarixiy islohotlarning mamlakatimiz taraqqiyotidagi samaralari misolida ham ko'rib, har birimiz o'z hayotimizda his qilib turibmiz.

Eng muhimi, bu islohotlar yildan yilga jadallashib, ortga qaytmas tus oldi. Oldimizda esa g'oyat ulkan maqsad va vazifalar, mashaqqatli marralar turibdi. Bunday muhim pallada har bir kun, har bir yil, o'tayotgan har bir fursat g'animat. Shu ma'noda, 2025-yil Yangi O'zbekistonimiz o'z taraqqiyotining

YURT QAYG'USIDA KECHAYOTGAN KUNLAR

hal qiluvchi bosqichiga qadam qo'yan yil sifatida tarix sahifalariga muhrlanganini alohida ta'kidlash o'rinli.

Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, bu davrga kelib **"biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o'rgandik. Buning tasdig'ini tobora yangicha qiyofa kasb etib borayotgan shahar va qishloqlarimizda, zamonaviy korxonalar, savdo-servis maskanlari, maktab, bog'cha va shifoxonalar, obod ko'cha va mahallalar, transport-logistika tizimi, raqamli xizmatlar misolida yaqqol ko'rish mumkin"**.

Biz nima uchun 2025-yilni mamlakatimiz va xalqimiz hayotida tarixiy yil sifatida e'tirof etyapmiz? Bu savolga javobni ayrim raqamlar misolida aytib o'tsak, menimcha, maqsadga muvofiq bo'ladi.

2025-yil tarixda birinchi marta O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot hajmi 145 milliard dollardan, oltin-valyuta zaxiralari 60 milliard dollardan oshdi. Eksport hajmi 23 foizga oshib, 33,4 milliard dollarga, iqtisodiyotimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi esa 43,1 milliard dollarga yetdi.

2025-yil O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzi hamda xalqaro reytinglardagi o'rini mustahkamlashda ham alohida ahamiyatga ega davr bo'ldi. Xususan, yetakchi xalqaro reyting agentliklari mamlakatimizning suveren reytingini "BB -dan "BB" pog'onasiga ko'tardi. "Bu bizga nima beradi?" degan savol ko'pchilikka qiziq, albatta. Birgina ana shu o'zgarish tufayli chetdan jalb qilinadigan resurslarning foiz stavkasi 1-1,5 punktga pasayib, tashqi qarz xarajati yiliga kamida 300 million dollarga kamayadi.

Shuningdek, Jahon banki e'lon qilib boradigan Davlatlarning texnologik yetuklik indeksida O'zbekiston 71 pog'ona yuqori ko'tarilib, dunyoning TOP-10 ta mamlakati qatoridan joy oldi.

2025-yilda 5 million aholi daromadli bo'lishi hisobiga ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag'allikdan chiqdi, ilk bor 1435 ta mahalla "kambag'allikdan xoli" hududga aylandi. Pirovardida, kambag'allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi.

Albatta, qisqa muddatda bunday natijalarga erishish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Buning uchun dunyodagi ijobiy yutuqlar o'rganilib, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha **Yangi O'zbekiston modeli** yaratildi. Xalqaro jamoatchilik bu modelni e'tirof etdi.

O'tgan yili futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi tarixda ilk bor Jahon chempionatiga yo'llanmani ko'lga kiritgani, 17 yoshlilar o'rtasida Osiyo chempionatidagi his-hayajonlarga boy yutug'imiz, shaxmat bo'yicha o'rnatilgan rekordlar sport yo'nalishida qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz salmog'idan dalolat berib turibdi.

O'z navbatida, 2025-yil mamlakatimiz uchun xalqaro miqyosda ham samarali muloqotlar platformasi davri bo'ldi. Yurtimizning xalqaro nufuzi sezilarli ko'tarilib, dunyo nigohi O'zbekistonga qaratildi. Davlat va hukumat rahbarlari darajasida o'tkazilgan ikki tomonlama uchrashuvlarning qariyb 60 taga yetgani, O'zbekistonning yuqori darajadagi delegatsiyalari dunyoning 93 davlatida xizmat safarida bo'lgani yoki yurtimizda Parlamentlararo ittifoq, BMT fuqarolik xizmati, YUNESKO Bosh konferensiyasi, Xalqaro iqlim konferensiyasi



Salim DONIYOROV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

kabi xalqaro yirik anjumanlar o'tkazilgani ham buni tasdiqlab turibdi.

Umuman, 2025-yil O'zbekiston uchun shunchaki navbatdagi taqvim yili emas, balki mana shunday salmoqli, tarixiy natijalar bilan bir qatorda, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasidagi islohotlarning **miqdordan sifatga o'tish davri** bo'ldi.

Bunda muhtaram Prezidentimiz Shavkat

Boshlanishi 1-sahifada.

"Milliy kitobxonlik harakati" mamlakatning barcha hududlarini qamrab oladi. Unda umumta'lim maktablarining 1-sinfidan 11-sinf gacha bo'lgan o'quvchilari ishtirok etishi mumkin. Bunday harakatlar ijrosida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi xodimlari, jamiyatning ziyoli qatlami, olimlar, muallimlar, adiblar, kutubxonachilar beqiyos xizmat qiladi.

Yaxshi kitob – ma'nilar maxzani. Yaxshi kitob yolg'iz odamga eng ishonchli hamroh, beminat do'st; nasihatga zarurati bo'lgan kishiga eng dono maslahatgoy...

Haqiqat timsoliga aylangan yaxshi kitoblar, odamning tafakkur olamiga ma'naviy-ruhiy ozuqa beradigan bebaho bitiklar tarixiy davr sinovlaridan o'tadi. Tabiiyki, bunday umrboqiy asarlarni bir kunda yoki bir o'tirishda yozish qiyin. Qolaversa, asrlardan asrlarga o'tadigan, dunyo ahlini o'z haqiqatlari bilan maftun etadigan kitoblarni yozish har kimning ham qo'lidan kelmaydi. Qog'ozni titirlitish, kitobga ruh va jon baxsh etish – iste'dod egalarning, chinakam olimlarning, qalbi toza adiblarning qismati.

2

Darvoqe, kitob o'qiganlarning hammasi ham oqil va dono, farosatlil va maslahatgoy bo'ladimi? Ko'p kitob o'qish bilan maqtanib kirbrga ketish, o'zini boshqalardan baland tutish madaniyatdanmi? Yuzlab, minglab kitoblarni o'qib uqmagani, hayot tarziga, axloqiga, vijdoniga, iymoniga tatbiq etmaganlar borligidan ko'z yumish haqiqat yuziga teskari boqishdir. Kitobdan olingan bahra "oh-oh" va "o'h-o'h"larsiz, ko'z-ko'z qilinmasdan ichkarini tozalash, ichkarini nurlantirish uchun yo'naltirilgan ma'qul ish. Oddiy dehqonning boshqolagan piyozlari yoki cho'ponning qo'ylari bilan qilgan "suhbatlari" – hayot kitobining oltin sahifalari sanaladi. Yuzlab hikmatli kitoblar o'qigan olimning yaqinlari – ota-onasi, farzandlari, juf-ti haloli, qarindosh-urug'i, do'stlari ko'ngliga yetkazgan chigitday ozuri iymoni toza odamni o'ksitadi. O'qigan muqaddas kitobga amaliy kimsaning maxsus tayyorlanib, davrlar to'rida "dono"ligi bilan odamlarni lol qoldirish niyatida yolg'on-yashiqni o'zidan qo'shib bulbulig'oy bo'lganidan ko'ra, go'yo umrida biror kitobni qo'lga ushlab ko'rimgandek, hech narsa o'qimandek jim o'tirib, sukut saqlash ming bora yaxshi. A'lodir...

Inson hayotiga tatbiq qilingan foydali, hikmatli kitoblarning umri har kuni uzayadi. Hayotda dasturga munosib kitob abadiy tirik bo'ladi. Yashaydi.

Kitob qadriini bilgan olimlardan biri kitoblar dunyosini ummonga o'xshatadi. Bu "ummon" bag'riga sho'ng'ib, dur-u javohirlar yig'ish, o'ziga munosib yo'l topish, chin dildan bahramandlik baxtiga erishish, tabiiyki, odamning pokiza didga, kitobxonlik madaniyatiga bog'liq. Aslida, umr bo'yi mutolaa qilganda ham aniq bir soha yo'nalisidagi kitoblarni o'qib tugatish qiyin bo'ladi. Lekin madaniyatli kitobxon vaqt-ni g'animat bilib, dunyo adabiyotining go'zal namunalarini, shoh asarlarni, albatta, tanlab o'qiydi. To'g'risi, bugungi shiddatli zamonada turli sayiyada bosilayotgan ilmiy-nazariy, tarixiy-badiiy kitoblar ana shunday tanlash ehtiyojini taqozo etadi.

3

"Milliy kitobxonlik harakati" xususida, kitobning qadr-qiyamati haqida fikr yuritgan mahali o'z mutolaaarim tufayli yuzaga kelgan hikmatli so'zlar xayolimga aylana boshladi. Dunyodagi turli tilli minglab, millionlab odamlar go'zal va boqiy kitoblar tilida dildan suhbatlashadi. To'g'risi, umrboqiy kitoblar o'z muallifi va u mansub millatni dunyoga tanitadi. Shaxsan o'zim o'qish jarayonida "Kitob o'qilmagan kun – yashalmagan umr", degan hikmatni topdim va unga baimkoni qadar amal qilib yuraman. Menimcha, yaxshi kitoblar mazmuniga muallifning pokiza qalbi, yurak urishi, teran nazari va davr manzarasi muhrlangan bo'ladi. Shu bois yaxshi kitob yolg'iz odamga eng ishonchli hamroh, beminat do'st; nasihat zarurati bo'lgan kimsaga eng dono maslahatgoydir. To'g'ri yo'lga boshlaydigan kitob yolg'izning do'sti, musofirning yo'ldoshi, faqirning boyligi, bemorning tabibidir...

Aslida mo'tabar kitoblar odamni odamdan, jamiyatni jamiyatdan, hatto tarixiy davrlarni o'zaro farqlashga yordam beradi. Kitob o'qib ruhini ma'rifat bulog'idan oziqlantirgan odam hamma vaqt huzur-halovat va xotirjamlikda faoliyat olib boradi. Prezident tomonidan boshlab berilgan "Milliy kitobxonlik harakati" bugungi ma'naviy-madaniy, adabiy-ilmiy sa'lohiyatni oshirishga, ushbu sohadagi tashkiliy va tashviqiy ishlarni rejali rivojlantirishga yordam berishi tabiiy. Ayniqsa, maktab ta'limida



tub o'zgarishlar bo'ladi. Uchinchi Renessans voqeeligiga mos qalbi butun kashfiyotchilar avlodi maydonga kelishidan umidimiz bor.

Bolalikdan o'qishga mehr qo'ygan yoshlar o'z hayoti uchun kerakli yo'l-yo'riqni, bir tomondan, ota-ona va muallimlaridan, ikkinchidan esa, tabiiyki, sohaga oid adabiyotlardan oladi. Kitobdek tabarruk manba yordamida kasbga ham yo'naltiriladi, bilim zaxirasi to'planadi. Kitobxonlikni kuchaytirish masalasi kun tartibiga Davlat rahbari tomonidan qo'yilgani bejiz emas. Buning negizida kitobni bilib tanlash, anglab o'qish, o'qib amal qilish turadi.

"Milliy kitobxonlik harakati"ga o'quvchilar talabida bo'lgan eng bebaho kitoblarni ko'p adadda, arzon narxlarda bosib chiqarish va ommaga yetkazish jarayoni ham taalluqli, albatta. Shubha yo'qki, millatning dovruq'ini olamga yoyadigan qadriyatlardan biri umrboqiy kitoblardir. Kitobdan bilim, zavq-shavq va bahra olish odamning botinini, ruhini tozalaydi.

4

Kitobxonlikni shakllantirish uchun oila davrasi va maktabgacha ta'lim muassasalari katta ahamiyatga ega. Uylarida televizor ko'rib o'tirgan ota-onaning bolalariga kitob o'qi, deb nasihat qilishlari natija bermaydi. Avval ota-onalarning o'zi kitobxon bo'lishi, kitob o'qib, undagi ayrim epizodlarni gapirib berishlari ma'rifatli oilani shakllantiradi. Bolalikda otam bizga "Kalila va Dimna"dan parchalar o'qib, turli rivoyatlarni aytib berganlarini hal-hali eslayman. Alisher Navoiy va Maxtum-qulidan yod aytgan she'rlarini bugun ham orasira yoddan takrorlab yuraman. Rahmatli otam muallim edi. Har kuni sahar ko'zimni ochgan mahal otamning kitobga tikilib o'tirganini, yozayotganini, o'quvchilarga beriladigan navbatdagi saboq uchun tayyorlanayotganini ko'rar edim. Bizda kitobga mehr-muhabbat shundan paydo bo'lgandir balki.

Bugun kitob o'qiyotgandan ko'ra yozadiganlar ko'payib ketdi. Ayrim grafomanlardan o'qigan asarlari surishtirilsa, o'zlarining o'quvchi emas, balki yozuvchi ekanini hazil qilib bo'lsa ham oshkora aytishadi. Odamning qanday kitoblarni o'qishi va yozishiga qarab, uning kimligi hamda dunyoqarashiga baho berish ham mumkin. Bolalik, yoshlik davrida ko'p o'qiganlarning so'z boyligi ortadi, fikrini aniq va lo'nda ifodalaydi. Shuningdek, badiiy asarlardan parchalar yod olish ham aqlli charxlaydi; adabiy-estetik did tarbiyasi uchun katta foyda keltiradi. "Yosh kitobxon", "Yosh kitobxon oila", "Jadidlar izidan" kabi Respublika miqyosidagi ma'rifiy tanlovlarda hakam sifatida qatnashib, shunday tabiatli yoshlarning yil-yildan tarbiya topib borayotganiga shaxsan o'zim guvohman.

Bu tanlovda qatnashadigan yoshlar shuuri adolatga, xolisliikka, ochiq-oydin bahs hosilalariga tugal ishonch paydo bo'lganidan mamnunman. Chunki kitob olamida g'irromlik va angishvona o'ynalari, masxarabozlik va maymunlik tomoshalari o'zini oqlamaydi. Kitoblar olami – jiddiy, ma'rifatli, madaniyatli, adolatli, haqqo'y, iymonli, vijdonli, mehr-muruvvatli, mard, oriyatli, jasoratli va shu kabi o'nlab go'zal fazilatlariga ega insonlar o'zaro bir tilda yurak-yurakdan gurunglashadigan begidir, bebaho bir g'aroyib olamdird. Bu olamga gard yuqmasin!

5

Kasb taqozosiga ko'ra adabiyotshunoslik kitoblarni ko'proq o'qiyman. Ulardan olingan yangi fikrlarni universitet talabalari auditoriyasiga olib kiramam. Demak, ilmiy-nazariy yangiliklarni shu soha qiziquvchilari bilan o'rtoqlashaman. Agar ular o'zim o'qigan kitobga qandaydir qiziqish uyg'ota olsam, vazifamni bajargan bo'laman. Talabalarim orasida men tavsiya qilgan kitoblarni o'qib, keyinchalik dissertatsiya ishlarida foydalanгани ko'rib xursand bo'laman. Bilimli, ko'p kitob o'qigan ziyolilar o'ziga ravo ko'rgan ma'naviyat ne'matlarini boshqalarga ham ilinislari lozim. Buning tagzaminida hikmat bor.

Ilmni qizg'anish – baxlilik va jaholat sanaladi. Ma'rifat talabidagi o'quvchiga kitob o'qishning eng unumli va foydali yo'llarini o'rgatish lozim. O'qigan kitoblari to'g'risida qisqacha ma'lumotlar yozib qo'yish, kitob nomi, muallifi, nashr yili va boshqa qirralarini maxsus daftarga qayd qilib borish kitobxonlik madaniyatining bir ko'rinishidir. Arxivimda bir zamonlar shunday qaydlar yozilgan daftarlarni bor. O'qilgan kitob izsiz yo'qolib ketmasligi kerak. Inson hayotining qaysidir o'rinda yaxshi kitob yordam beradi, albatta.

Kitoblar xotiralarga bog'lanib ketadi. Kim menga qanday kitob sovg'a qilgan va kim menga qanday kitobni o'qish uchun tavsiya qilgan. Bu qiziq masala.

Yoshligimda ko'p kitob o'qishga harakat qilardim. Ammo eng ta'sir qilgani – "Robinzon Kruzo", zavq va qo'rquv aralashib ketgan edi o'shanda. Yettinchi sinfda o'qib yurgan paytlarim "Yulduzli tunlar"ni otam sovg'a qilgan; shundan beri men Boburga va Bobur menga yo'ldosh. Toshkentga endi kelib, talaba bo'lgan davrimda "Yillar armoni" kitobiga Abdulla Oripovdan dastxat olganman.

6

Taassufki, juda ko'plab kitoblar borki, odamlarga foyda bermaydi. Aslida o'sha kitoblarni yozishga ham zarurat yo'q edi. O'qishga umuman ehtiyoj yo'q. Bunday kitoblarda yangi gap, fikr, mulohaza, ma'lumot, hatto xabar ham anqoning urug'i. Bu toifa kitoblar allaqanday hisobotlar, ro'yxatlar, ismlar namoyoni va o'zini o'zi ovutish uchun yozilgandek taassurot qoldiradi. Haqiqiy asar, maqola – bular unutilmas muhr. Davr muhri, qalb muhri, yurak muhri, nazar muhridir. Taassufki, bosilgan kitoblar gohida bir kun ham umr ko'rmaydi. Ammo tinimsiz bosiladi. Muqovalanadi. Do'konlarga chiqadi. Yoki sadaqaqa tarqatiladi. Ko'pgina kitoblar boshqa kitoblardan ko'chirib olingan ko'chirmalar asosida yoziladi. Bunday yasalgan kitoblar uchun ilmoqli bir rukn topib qo'ydim: "Ko'rganlarimdan ko'chirganlarim", deb. Ayniqsa, adabiyotshunoslik maqolalar va kitoblarda, adabiyotshunoslik asarlarida tushunarsiz tushunchalarni tushuntirish o'rniga tushunarli tushunchalarni tinimsiz tushuntiriladi. Gohida hech qanday siri, badiiyati bo'lmagan romanlardan tadqiqotlar maydonga keladi. Tadqiqot egalari ilmiy unvonlar oladi.

Bir zamonlar kitoblarni harflab o'qishgan. Keyin so'zma-so'z o'qishgan. Biror so'z qoldirib ketilishiga odamning ko'zi qiyman. So'ngra gaplar-jumlalar batafsil o'qilgan. Biror gap yoki jumla qolib ketisa, o'sha asarning mazmunini o'quvchi to'la xabardor bo'lmagan, albatta. Bunday mantiqiy zanjir adabiy matndagi genetik to'qimalari o'zaro mustahkam ushlab turgan. Endi-chi? Ba'zi kitoblarni varaqlab o'qish mumkin. Kitoblarni boblab, fasllab o'qish mumkin va ularning tashlab ketilgan sahifalari uchun odam achinmaydi. Balki bunday kitoblarning annotatsiyasi yoki tumor o'rinda yozilgan shapaloqdek o'ngso'z yo so'ngso'zini o'qishning o'zi kifoya qilsa kerak.

Eng qizig'i, ayrim kitoblar borki, quruq muqova, yasama shakl, mazmuni muammo, zavq-shavq bilan o'qiy olmasiz. Bunday kitoblarda bema'ni ma'ni hukmronlik qiladi.

Yaxshi kitob – ko'ngil chirog'i. Yaxshi kitoblar vositasida buxoriylar, termiziyalar, samarqandiylar, xorazmiylar, farg'oniyalar, shoshiylar, nasafiyalar o'lroq dunyoga dong taratgan ajdodlarga munosib avlod tarbiyalanadi. Millat dovruq'ini kitoblar olamga yoyadi. Ma'rifatlab ziyot ahlining dillarini, ko'ngillarini bir-biriga mustahkam bog'laydi.

Shu e'tibordan bugun kitoblarni butun vujud bilan berilib mutolaa qiladigan o'quvchi-yoshlar va ularning istiqboliga kuyunchak ota-onalar uchun "Milliy kitobxonlik harakati"ning qadr-qiyamati beqiyosdir.

Bahodir KARIM,
filologiya fanlari doktori,
professor



Boshlanishi 1-sahifada.

Agar bulami faqat rasmiyatchilik uchun bajarsangiz ko'p o'tmay hafsalangiz pir bo'ladi, ishdan ham, hayotdan ham ko'ngil so'vib ketadi. Chunki odamlar o'z oilasidagilarning hasratini eshitishga toqat qilolmaydi ba'zan. Raislar esa butun mahallani eshitishi kerak. Eshitganda ham quduqday yutib ketish emas, ularga taskin berish, muammosiga amaliy yechim taklif qilish, qo'lingizdan kelmasa ishning ustalariga yo'llab qo'yishingiz, birga yugurib-elingiz zarur. Charchatadimi? Charchatmasa ham horitadi. Lekin odamlarning bir og'iz "Rahmat, rais buva!", "Baraka toping, Muxtor aka!" degan gapidan charchog'ingiz chiqib ketadi.

Aslida hayotning mazmuni – el-yurtga foyda keltirish, odamlarga kerak bo'lib yashash ekan. O'zbekchilikda hayotning ham, faoliyatning ham yakunida bir savol beriladi: "Bu qanaqa odam edi?". O'shanda "Yaxshi edi" desalar, men uchun eng katta baxt shu. Buning uchun esa har kuni o'zingizga shu savollarni beraman: "Bugun qanday odam bo'ldim? Mehnatimdan kimga foyda bo'ldi? Ertaga qanday ishlarni qilishim kerak?". O'zini nazorat qila oladigan odam boshqalarning nazoratidan cho'chimaydi. Ana shu nazorat xalq ishonchini oqlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.



CHANG KO'CHALAR, KENG KO'CHALAR

Avvallari mahalla raislariga juda qiyin edi. Mahalla degan tuzilma odamlarga yordam berish tugul, raislarini maosh bilan ta'minlay olmasdi hatto. Oylisiz ishlagan vaqlarimiz ham bo'lgan. Xalq mahalla idorasi desa "spravka" beradigan, yog' tarqatadigan, er-xotin mashmashasiga qozilik qiladigan joyni tushunib qolgandi. Shukr-ki, keyingi o'n yilda mahalla tizimi qadinni ko'tardi.

Kechagidek esimda: 10-15 yil oldin ham taksilar mahalla ichiga kirishdan bosh tortardi. Chunki 30-40 yillab asfalt ko'rmagan ichki yo'llar texnikaning azobi, payabzaning ofati edi-da. Yomg'ir yog'sa yo'l qaysi, chuqur qaysi farqlab bo'lmasdi. Bu poytaxtdagi holat, endi boshqa hududlar haqida gapirmay qo'ya qolay. Yoz kunlari ko'chada yurishdan yurak bezillardi. Chang-tuproq yetmaganday, chiqindilar uyulib, hidi dimoqni yorardi. Qani endi rais bo'lib, gapingni o'tkaza olsang. Shuniyam iloji bo'lmagan. Raislar muomala qilish, yo'l-yo'rig'ini topib mahalla obodligini saqlab turishga harakat qilardi. Uyat bo'lsa ham o'ziga to'q, tadbirkor aka-opalar o'ziga bo'lsa-da qo'llab yuborarmikan, deb yo'lga ko'z tikib o'tirardik. Endi bu gaplar o'sha changlar ortida qolib ketdi.

Hozir Toshkent shahridagi deyarli hamma mahallaning ichki yo'llari asfaltlandi, beton qilindi. Yo'l bo'yiga chiroqlar o'rnatildi. Xonadonlardagi yashash sharoiti tubdan yaxshilandi. Keyingi yillarda elektr toki uzilishlari ko'rsatkichi keskin tushdi. Obodonlashtirish ishlari tizimlashtirildi. Endi gap faqat odamning ichki madaniyati, jamoatchilik nazoratida qoldi.

O'zgarishlar moddiy emas, ma'naviy jihatdan ham ko'zga tashlandi. Bilasiz, mahalla tarixi ming yillarga borib taqaladi. Har bir davrda uni ildizlarini saqlab qolib, yangilash talab etiladi. Muhtaram Prezidentimiz mahalla tizimini yangilab berdi. Bizdan endi faqat

OYDIN KO'CHALAR

ishlash qoldi. Shavkat Miromonovich mahallada mol-mulk solig'idan tushadigan 10 foiz pulni mahalla byudjetiga to'g'rilab berdilar. Bu yildan boshlab 15 foizga chiqdi.

Butun yil mahallani rivojlantirishga bag'ishlandi. Men o'sha yig'ilishda ishtirok etarkanman, ko'zimga yosh keldi-da. Qachon bo'lgan bunaqa sharoit mahalla raislariga? Qachon mahallalarimiz bunaqa obod bo'lgan? Buni xalqimiz ham sezyapti, o'z ko'zi bilan ko'ryapti. Odamlarda "Bo'lar ekan-ku!", "Iloji bor ekan-a?!" degan gaplar paydo bo'ldi.

Bu faqat Toshkentda emas. Butun respublikamiz mahallalari avji o'zgarish pallasiga kirdi. O'zim ham hududlarga tajriba almashishga borib turaman. Yo'lda ham, manzilda ham bir qurilish, bir yangi obyekt ochilishi, yangi gulzor, bog' parvarishi ustidan chiqaman. Men o'ylaymanki, shu yilning oxirigacha mahallalar bundan-da gullab-yashnaydi.

SO'NGGI TOR KO'CHA

Mahallamizni mukammal deya olmayman, albatta. Hali hal qilinishi kerak bo'lgan bir nechta masala bor. Yonimizda 47 ta ko'p qavatli uy tushdi. Ko'chalarimiz torlik qilyapti: avtomobillarga ham, fuqarolarga ham noquylaylik tug'diryapti. Ayniqsa, "O'rikzor", "Karvon" bozorlari yaqin bo'lgani uchun mahallaning ichiga avtoulavlarni qo'yib ketishyapti odamlar. Shu masalalar bo'yicha tegishli tashkilotlarga murojaat qilganmiz. Ish olib borilmoqda. Shahar kengashi deputati sifatida o'zim ham nazoratga olganman. Xudo xohlasa, jarayon nihoyasiga yetib qoladigan bo'lsa, aholi ham rozi bo'ladi degan umiddaman. Mana shu ikki-uchta masala hal bo'lsa, boshqa hech narsa kerak emas. Hammasini Yurtboshimiz qilib beryaptilar-ku. Faqat biz munosib javob qaytarib, borini qadrlab, o'zimiz ham hissa qo'shishni o'ylashimiz kerak.

YANGI KO'CHALAR

Ramziy ma'noda mahallaning yangi ko'chalari bu yangi oilalar hisoblanadi. Kelajak ham ularning qo'lida. Mana, to'rt yildan beri ajrim yo'q bizda deb aytdim. To'g'ri, har bir oilada kelishmovchiliklar bo'lib turadi. Nega desangiz, ayrim yoshlarimizda shukronalik yetishmayapti. Hamma narsa birdan bo'lishini istaydi kelin, kuyov hali oyoqqa turmagan, o'zini o'qqa-cho'qqa uradi... Tezroq shaxsiy uyi, mashinasi bo'lsa, katta lavozimda ishlasa, yilda to'rt marta dunyo kezza... Bu narsalarga sekin-sekin erishiladi, albatta. Uning tagida mehnat yotibdi. Ko'p qavatli binoga bittabitta zina bosib chiqiladi. Manaman degani ham o'nta pillapoyani bir deganda hatlab o'tolmaydi.

Shuning uchun biz nuroniylar, ziyolilar, faollar bilan xonadonma-xonadon yurib suhbatlashamiz. Yoshlar oilaga tayyormi – tayyor emasmi, aniqlaymiz. O'zimizning savollarimiz bor. Bo'lmasa, ularni oldin tayyorlaymiz oilaga.

Keyinchalik muammo chiqsa, oiladagilarga: "Baraka topkur, to'yingiz kassetasini qo'yib beraymi? O'sha to'yda biz endi opa-singilmiz, deb chuqoqlashib ko'rishganlaring esingizdami? Kuyov bola, kelin qizim, qarang, bir-biringizga qanday mehr bilan qarab turibsiz. Uzakka ko'z qo'yganday. Ko'z tegdimi?", desam o'zlari darrov tushunadi.

JAHONGA TARALGAN KO'CHALAR

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning mahalla haqida ajoyib she'ri bor. Ayniqsa, "Mahalladan chiqqan G'afur G'ulomlar" degan satrini kitobxonlik, she'riyat kechalarida yoshlarga ko'p takrorlayman. Shu she'ringizni yakunida ko'tarinki band borki, xuddi, bugungi kunni tasvirlaganday:

*Shoir emas, jarchi bo'lsaydim agar,
Kim kelsa derdim men, qaysi sarhaddan:
Mehmon, markazni qo'y, mahallaga bor,
Bizda mahalladan boshlanar Vatani!*

Bugun mahallamizga chet ellik mehmonlar ham tashrif buyuradi. Ular uchun mahalla tizimi qiziq. Xalqimiz urf-odatlar, yashash tarzi, an'analari saqlab qolayotgani hayratga soladi. Biz ham bemalol ularni qabul qilamiz, oydin ko'chalarimizni sayr qildiramiz. Chunki bugun hech kimdan uyalmaydigan darajaga keldi sharoitlarimiz. Shu mahalla ko'chalarda chopib yurgan bolalar sport va fan olimpiadalari, turli sohadagi musobaqalarda jahonga chiqyapti. Shuning uchun mahallamiz ko'chalari jahon yo'llariga ulanib ketgan. Bu uchtepalliklar ko'ngliga tog'day yuksalgan iftixor bag'ishlaydi.

Yurtdoshlarimizni ham mahallamiz ko'chalaridagi "Yashil makon" doirasida tashkil etilgan gulzor va bog'chalarga gurgungga taklif qilamiz. Mana, ko'ring, havas qiling, bizing mahalla shu, xush kelibsiz, aziz mehmon, deymiz!

Zarnigor IBROHIMOVA yozib oldi.

TEATR

O'zbekiston davlat Yoshlar teatri "Qasamyod" spektaklining premyerasini O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri sahnasida namoyish etdi.



22-may oqshomi tomoshabinlar Turkiston yoshlarining taqdiri va hayotiy voqealarga asoslangan chuqur dramatik hikoyaning guvohiga aylandi. O'tgan asrning 20-yillarida jadidlar tashkil qilgan "Ko'mak" fondi orqali Germaniyaga ilm olish uchun yuborilgan yoshlarning orzulari, ichki kurashi va fojeali taqdiri sahnada ta'sirchan ifoda etildi.

1922-yilda Turkistondan ilk talabalar guruhi Germaniyaga yo'l oldi. Ular Berlin, Kyoslin, Drezden va boshqa shaharlaridagi o'quv dargohlarida iqtisodiyot, sanoat va qishloq xo'jaligi kabi eng zarur sohalar bo'yicha o'qidi. Bu yo'l ortida jadidlarning ma'rifat va taraqqiyot haqidagi buyuk g'oyalari turardi. Ammo

GAP SHAROITDA EMAS, SHAHDDA

yoshlarni oldinda og'ir sinovlar, qatag'on va fojeali taqdir kutayotgan edi. Chet elda qolish imkoniyati bo'lsa ham, ular Vatanga qaytishni tanladi. Chunki yosh turkistonliklar Abduraf Fitrat boshchiligidagi Amir Temur qabri boshida ichgan qasamyodlariga sodiq edilar.

Biroq bolsheviklar hukumati bu yoshlarning erkin fikrlashi va Yevropa ta'limini olishini o'z tuzumiga katta xavf deb bildi. Natijada, 1924-yildanoq ularni ortga qaytarish choralarini ko'rdi. Germaniyada o'qib qaytgan deyarli barcha ziyoli yoshlar 1930-yillardagi "katta terror" davrida "Germaniya foydasiga josuslik qilgan" yoki "aksilinqilobiy tashkilot a'zosi" degan soxta ayblovlar bilan qatag'on qilindi, otib tashlandi yoki surgun etildi.


"Qasamyod" spektaklida bu jihatlar Aziz Xo'jayev, Muhammadjon Avazjonov, Abdulla Po'latov va boshqa talabalar taqdiri misolida juda ta'sirchan, haqqoniy va mazmunli tarzda ochib berilgan. E'tiborga molik jihati, yosh aktyorlar bir vaqtning o'zida bir-biriga mohiyatan zid bo'lgan ikki xil obrazlarni tomoshabinlar taqdim eta olgan.

"Qasamyod" – Vatanga sadoqat, xotira va o'z e'tiqodidan voz kechmagan avlod haqidagi ta'sirchan sahna asari. Spektakl o'sha tarixiy davr ruhi va muhitini, mash'um qatag'on yillarining fojeaviy manzarasini to'laqonli ochib bergani bilan diqqatga sazovor.

Sahnalashtiruvchi rejissyor va insensirovka muallifi – Aleksandr Gamirov. Pyesa mualliflari – Bahrom

Otabek BAXTIYOR

TALQIN



Bayt ziyorati

Haqiqiy ijodkor qismati Vatani bilan chambarchas bog'liq keladi. Qaysi mavzuda yozmasin, asarlarining qon tomirida Vatani va Millatga muhabbat tuyg'usi jo'sh urib turadi. Uning yurtining yuksalishini ko'rish – uning uchun quvonch manbai. Tuqan elning kamoli – umr mazmuni. Bul havaslardan farqli o'laroq, chin shoir bu tuyg'uni suiiste'mol qilmaydi.

So'z gavharini toshga urmaydi. Uni qalb qo'rida asraydi. Vatani – uning uchun jon va tan. Millat – ornomus va sha'n. Tabiat go'zalligini kuylasa, bu tuyg'u yo'lidosh. Orzu-armonini nazm etsa, shu tuyg'u – sirdosh. Ona zamin uning uchun yurakdagi oh. Ko'ngli mudom el dardiga dilxoh. O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ana shunday ijodkorlardir. Shoir she'riyatni ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Baytuloh ziyorati – uni kim ham orzu qilmaydi, deysiz... Yurt rahnamosi hamrohligida xonayi Ka'bag'a kirib, Yaratgandan Vatani ravnaqini, millat baxtini tilamoq – bu necha yuz milliondan bir kishigagina nasib etadigan ulug' saodat! Toleyi kulgan ekan, shoir ana shunday buyuk sharafga noil bo'ldi. "Millat baxtin so'rar millat otasi" sarlavhali she'r – ana shu muqaddas ziyorat taassurotlari hosilasi:

*Olohi nomi bilan boshladik
kalom,
Olohi dargohida eng oliy in'om.
Keldik – dil va tilda labbayka,
salom,
Bandaga ravodir Haq hidoyati,
Bizga nasib etmish Bayt ziyorati.*

Muxammad shaklidagi she'rning har bandi shukrona ruhidagi "Bizga nasib etmish Bayt ziyorati" satri bilan yakunlangan. Har bir banddagi ushbu va unga qofiyadosh bo'lib kelgan to'rtinchi misra butun she'r mazmunini yagona estetik konsepsiya atrofida birlashtirgan. Natijada so'z durlari yagona nazm rishatasiga terilgan.

Shoir lak-lak odamzotni yaratgan, mehr-u karamini taratgan, olamni bir joyga – Ka'batulohga qaratgan buyuk Zotni vasf etar ekan:

*Ming-ming hikmat eran
bir ishorati,
Bizga nasib etmish
Bayt ziyorati, –*

deya shukrlar aytadi. She'rda toabad munavvar shahar – Madinatun Navbiy vasfi, Yurt Egasining muborak ravzada elga ziyolar so'rab duolar qilgan holati pok niyat va samimiyat, teran mazmun va yuksak badiiyat uyg'unligida talqin etiladi.

Ana shu muborak dargohdagi holatni muftiy Shayx Nuriddin domla Xoliqazarov mana bunday hikoya qiladi:

– "Prezidentimiz qo'llarini duoga ochdilar-da, birinchi duolari: "Yo Rabbii, duo qabul bo'ladigan joyda sendan yulvorib so'rayman, mening xalqimni tinch qilgin! Jonajon Vatanimni obod qilgin!" dedilar. Faqat xalqni so'rab duo qildilar. Ikkinchi marta o'zingiz uchun ham duo qiling, deb iltimos qildim. Yana qo'llarini duoga ochdilar-da: "Yurtimning

yoshlarini ilmi qilgin, saodatli qilgin, baxtli qilgin! Yurtimda hech notinchlik bo'lmasin!" dedilar. Uchinchi marta yana aytdim: "O'zingiz uchun ham duo qiling!" Yana xalqni duo qildilar. hech kimda xo'jako'rsinlik bo'lmaydi. Men keyin Prezidentimiz haqlariga duo qildim.

Judayam kamdan kam bo'ladi, hammaga ham nasib bo'lmaydi, ularga Payg'ambarimiz salolohu alayhi vasallam yashagan, dafn qilingan joyni ochib berdilar. Avval Fotima onamizning uylariga kirib, keyin darchadan payg'ambarimiz uylariga o'tilar ekan. Shu yerga dafn qilingan, o'sha yer matolar bilan o'rab qo'yilibdi. Rasululloh oldida turishni tasavvur qiling?! U yerdagi holatni aytib berolmayman...

Rasulullohning yonlarida turibmiz. "Menga kelib salom bersang, alik olaman", degan zotning oldida "Assalomu alaykum" deb turibmiz. Prezidentimiz "Assalomu alaykum, yo Rasululloh. Men sizga sining ummatingiz bo'lgan O'zbekiston xalqi, mo'min-musulmonlarining salomini olib keldim, qabul qiling!" dedilar. Keyin hammamiz jo'rb bo'lib salovat aytdik. So'ng qibla tomonga qarab, qayta va qayta xalqimiz haqiga duo qildilar".

Ruhoniyat bilan bog'liq ana shu ta'sirli holatni shoir mahorat bilan qalamga oladi:

*Najot ehromini biz o'rab keldik,
Eng avval el-yurtga
baxt so'rab keldik,
Ketmas toj-u davlat,
taxt so'rab keldik,
Bordur har duoning o'z ijobati,
Bizga nasib etmish
Bayt ziyorati.*

She'rning keyingi bandi teran mohiyat behad ta'sirli ifodalangan jihatidan qimmatlidir:

*Millat baxtin so'rar
millat otasi,
Ko'zlardagi yoshlar – dil ifodasi,
Bunda niyatlarning yo'q nihoyasi.
Maqsad – yurt toleyi,
xalq saodati,
Bizga nasib etmish
Bayt ziyorati.*

E'tibor berilsa, she'rning nainki har bir satri, hatto har bir so'zi yagona maqsadga – Yaratgandan yurt toleyi va xalq saodatini so'rashga qaratilgan. Millat baxtini so'rayotgan Millat Otasi obrazi she'rga alohida ruh bag'ishlab turibdi. Pok dil ifodasi bo'lgan ko'zlardagi yosh, nihoyasi yo'q niyatlar bilan bog'liq talqinlar – barchasi ana shu ezgu maqsadni mujassam etgani samimiyat va ta'sirli chiqqan.

Shoirning toza ko'ngil izhorlari o'quvchini befarq qoldirmaydi. Qayerda, qanday holatda bo'lmasin, el-yurt baxtini o'ylash Vatanning har bir farzandi uchun farz va qarz ekanini mudom yodga solib turadi. Zero, asl she'rdan ko'zlangan maqsad ham shu – o'quvchi shuuriga ta'sir etmoq, uning qalbiga shaxs kamoloti va Vatani ravnaqi yo'lida xizmat qilish tuyg'usini joylamoqdir.

Nurboi JABBOROV,
filologiya fanlari doktori,
professor



MOZIYDAN SADO

“Aholining boy tabaqasimi, quyi qatlami aholisidami, farqi yo‘q, kimning xonga arzi bo‘lsa, istagan kuni hech qarshiliksiz xon hazrat, ya‘ni Muhammad Aminxon huzuriga borib, arzi ayta oladi. Agar dunyoviy masala bo‘lsa, xonning o‘zi hukm chiqaradi, agar shar‘iy bo‘lsa, qozikalonga murojaat qiladilar. Zakotdan tashqari hech kimsadan biron narsa undirilmaydi, moliga tegmaydilar. Zakotni mulkning qirg‘dan biri tarzida oladilar. Oldi-sotdi muomalasi, soliq kabi sohalarda zo‘rluk ishlatilmaydi. Xonning o‘zi shaxsan minadigan uch-to‘rtta oti va bir xachiri bor. Bir necha xos navkarlari xon xizmatida turadi. Oshxonasining kecha-yu kunduzgi xarajati juda oz miqdorda bo‘lib, xon ovqat tanlab o‘tirmaydi, nima pishirilsa, shunga qanoat qilaveradi. Ortiqcha dag‘dag‘asi yo‘q. Xon libos kiyishda boshqa odamlar kabi bo‘lib, kamtarligi tufayli dabdabali kiyimlarni yo‘qitmaydi. Hazrat xonning faqat bosh kiyimiga farq qilib, qizil movutdandir. Boshqalarniki esa qizil bo‘lmagan movutdan...”

Ushbu iqtibos 1851-yili ikki qo‘shni davlat o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni barqarorlashtirish, eronlik asir, tutqun-qullarni ozod etish muzokaralarini olib borish maqsadida Eron hukumdori Nosiriddinshoh tomonidan Xiva xoni Muhammad Aminxon huzuriga elchilik maqomida yuborilgan Rizoqulixon Hidayotning “Saforatnomayi Xorazm” (“Xorazm safari kundaligi”) asaridan olindi.

“Xon xazinasi foydasiga to‘plangan soliqlardan tashqari aholidan yig‘ib olingan mablag‘lar, ayniqsa, joylarda davlat amaldorlari uchun daromad manbayi bo‘lib xizmat qildi. Bundan tashqari, davlat amaldorlari o‘zlariga qarashli yerlarda dehqonlarni ishlatib, ekspluatatsiya qilib daromad olar edilar. Xon ma‘muriy sud ishlari va harbiy ishlar yuzasidan cheksiz despotik hokimiyatga ega edi. Xonlikdagi sud ishlarida vahshiylik va o‘zboshimchalik hukm surdi. Xon va uning amaldorlari oddiy xalqdan zo‘rluk bilan tortib olingan turlik soliq va boshqa mablag‘lar hisobidan dabdabali hayot kechirishar, fuqarolarning arz-dodlarini eshitadigan odam yo‘q edi”.

Bu iqtiboslar esa 1957-yilda chop qilingan ko‘p jildlik “O‘zbekiston SSR tarixi”ning ikkinchi kitobidan keltirildi.

Xo‘sh, kim haq? Xonlikdagi haqiqiy ahvoli o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, guvoh bo‘lgan Rizoqulixon Hidayotmi yoki bu davrni oradan bir asrcha vaqtdan so‘ng tarixga raqam qilgan tarixchilarmi?

Rizoqulixon Hidayot oddiy amaldor – shoh elchisigina emas, balki mashhur shoir, adib va ma‘rifatchi, noshir sifatida o‘z zamonasida butun Sharqda tanli edi. O‘zi bir qator tarixiy asarlar yozgan, devon tartib bergan, noshir sifatida Tehronda “Qobusnoma”, “Tuzuki Temuriy” kabi qimmatbaho asarlarni, Rumi, Nosir Xisrav devonlarini chop qilgandi. Ogahiy hazratlari Rizoqulixon Hidayot qalamiga mansub ko‘p jildlik “Ravzat us-safoyi Nosiriy” asarini o‘zbekchaga tarjima qilgani bejiz emas.

Rizoqulixon o‘ziga yuklatilgan masalani hal qilish uchun xonlikda to‘rt



KIM HAQ?

oydan ko‘proq yashaydi, bir necha marta xon qabulida bo‘ladi. Bo‘sh vaqtlari xonlik aholisi turmush tarzi, iqtisodiy ustqurmalar, odamlarning o‘zaro munosabatlari, saroy amaldorlari va oddiy xalq yashashlari orasidagi farq va o‘xshashliklar, sud tizimini sinchkovlik bilan o‘rganadi. Uning nazaridan hatto hududda yetishtiriladigan turli mevalar, pishiriladigan taomlar ham chetda qolmagan.

Eng e‘tibori tomoni, xonlikda tutqinlikda yashayotgan o‘ttiz ming nafarga yaqin eronliklarni ozod qilish bo‘yicha xon bilan olib borilgan muzokaralar natijasiz tugaydi. Ham elchi, ham adib o‘laroq Rizoqulixon Hidayot samarasiz tashrifidan pushaymonlik tuygani xonlikdagi ayrim holatlarga bildirgan salbiy qarashlarida aks etadi. Ammo, tan olish kerak, u ko‘rganlarini ochiq-oydin, yolg‘onlarsiz qog‘ozga tushiradi, ayrim holatlarni o‘zaro taqqoslab, Xivada adolati tuzum amaliyotda ekaniga tan beradi.

Yana mazkur asarida muallif yerlik xalq fe‘l-atvori haqida qiziq ma‘lumot keltiradi: “Xorazmda odamlarning bir-biri bilan urishishi, janjal chiqarish, o‘g‘irlik qilish, yolg‘on gapirish, yasama qasam ichish yoki oldi-sotdida so‘zidan qaytish, g‘irromlik, degan gaplar mutlaq yo‘q. Odamlar bir-birlari bilan urishmaydigina emas, balki o‘zini balandlatib, baqirchaqir qilishmaydi, desam, mubolag‘a bo‘lmaydi”.

Raiyatning shirinso‘z muomalasini bir tomondan qonun ustuvorligi, ikkinchi tomondan asriy qadriyatlar ta‘sirini, uchinchi tomondan tarbiya hosilasi, deb tushunmoq kerak.

...Oradan bir muchal vaqt o‘tib xonlikka kelgan vengriyalik olim Herman Vamberi “O‘rta Osiyoga 1863-yilgi sayohat” yo‘lnomasida yozadi: “Peshin namozidan keyin xon tashqariga chiqadi va ayvonda o‘tirib arz tinglaydi. Arzga kelgan xotin-u erkak va bolalar har xil kiyimda, hatto yarim-yalang‘och holda bo‘lsa ham xon oldiga kirgizadilar. Kirgan kishi xonning oldiga juda yaqin borib, o‘zini bemaol tutib, arzi aytdi. Xonga e‘tiroz bildiradi, ba‘zan hatto xonning bir imosi bilan jallod qo‘liga tushishini bilsa ham, u bilan bahslashib qoladi...”

Vamberi kelgan paytda Rizoqulixon Hidayot ko‘rgan, ta‘riflagan xon vafot etib, bu orada ikki marta xon almashgandi. Ammo, ko‘rinib turibdiki, xonning raiyat arzi tilinglash bo‘yicha amaliyotda bo‘lgan tartibi o‘zgarmagan.

Vengriyalik mashhur olim va sayyoh o‘z asarida xon saroyidagi ko‘pgina tartib-qoidalarga ham e‘tibor qaratgan va uni ajablantirgan holatlar – hukmdorlar yashash tarzida Ovrupada ko‘rganlari kabi ortiqcha dabdabozlik, hashamat yo‘qligini hayrat bilan bayon qilgan.

Ayni o‘sha davr – o‘n to‘qqizinchi asrning birinchi yarmida xonlikka turli maqsadlarda kelgan rus olimlari, sayyohlari esdaliklaridagi ko‘pgina o‘rinlar eronlik va vengriyalik hamkasblari yo‘lnomalarga mos tushadi.

Xo‘sh shunday ekan, keyingi “tarix-yozarlar” “zulmkor tuzum”, “ayovsiz ekspluatatsiya”, “adolatsiz boshqaruv”, “son-sanoqsiz soliqlardan ezilgan xalq”, “sud tizimidagi vahshiyliklar” kabi ibora-yu ta‘riflarni qayerdan oldi? Muntazam yuritilgan va hozirgacha bir qismi saqlangan xonlik arxividagi hujjatlar bu kabi holatlar haqida guvohlik bermaydi-ku!

Akademik M.Yo‘ldoshevning 1959-yil chop qilingan “Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi” asari aynan xon arxivi hujjatlari tadqiqotiga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, muallif sho‘ro mafkurasini ta‘sir, balki bosimi ostida xonlik tuzumini butunlay qora bo‘yoqlarda tasvirlagan. Ayrim o‘rinlarda asl haqiqatlar chala haqiqatlarga aylantirilib, rad etib bo‘lmaydi fakt va raqamlar teskari mazmunda sharhlangan. Afsuslanarlisi, keyinchalik ushbu ta‘rif-u tasniylar bor bo‘yicha maktab darsliklariga ko‘chib o‘tadi va yurt so‘ragan xon-u amirlar “olabo‘ji” qilib ko‘rsatiladi. Tariximizni yozgan o‘zga millat vakillarini qo‘ya turaylik, xon zamonini ko‘rgan, hech bo‘lmaganda o‘tadibosidan eshitgan o‘zimizning tarixchilar “xonning xachir minishi”ni tasavvurlariga sig‘dira olmagan ajablanarlidir.

To‘g‘ri, xonlik tuzumini mutlaq fozilikka nomozd, deya olmaymiz. Hamma zamonlar, barcha tuzumlarda ozmi-ko‘pmi adolatsizliklar ro‘y bergani, bularning aksari shaxslar bilan bog‘liqligi bor gap. Insoniyatning “o‘g‘irlik jamiyat” tuzish orzusi hali hamon orzuligicha qolmoqda. Ammo...

Xonlikda yagona qamoqxona – Ko‘hna Ark yonidagi zindon bor-yo‘gi o‘n besh nafarcha jinoyatchiga mo‘ljallangan, aksar vaqtlarda unda bir-ikki mahkum saqlangani ham haqiqat. Bu xonlikda jinoyatchilik kamligi, jazo muqarrarlari tamoyili hamisha amalda bo‘lganining yaqqol isbotidir.

Endi e‘tiboringizni boshqa bir manbaga qaratamiz. “Turkustankiy kuryer” gazetasiyning 1911-yil 184-sonida Xiva xonligi bosh vaziri Islomxo‘janing maqolasi chop qilingan. Unda shunday fikrlar bor: “Men shahar hunarmandining o‘g‘liman, o‘z otamning izidan bormoqchi edim. Lekin Xudo menga yaxshi bosh bergan va madrasada mening qobiliyatim ko‘zga tashlandi. Lekin bir hodisa mening taqdirimni boshqa yo‘lga solib yubordi. 13 yashar bolalik vaqtida qishloqda, tog‘amning uyida mehmon bo‘lib turgandim. Bir kuni shu joyga soliq yig‘uvchilar keldi. Ular kelishi bilan shunday hodisalar boshlandiki, ularni so‘zlab berish mumkin emas. Shu vaqtda men bu dahshatli soliq yig‘uv usulini o‘zgartirish uchun, qanday bo‘lsa ham, “katta amaldor” bo‘lishga qaror qildim”.

Islomxo‘ja chor hukumati xonlikni istilo qilgan 1873-yilda tug‘ilgan. Demak, u 1886-yillarda o‘zi guvoh bo‘lgan voqealarni bayon qilgan. Rizoqulixon Hidayot va Herman Vamberi ta‘riflagan “adolatli tuzum” nahot chorak asrning nari-berisida barham topgan bo‘lsa? Xuddi shunday.

Ma‘lumki, Xiva xonligi bilan chor hukumati o‘rtasida 1873-yil avgustda tuzilgan “Gandimyon shartnomasi”ga ko‘ra xonlik bosqinchi tarafdagi o‘z davri uchun juda katta bo‘lgan miqdorda tovon to‘lashi belgilangandi. Tovon pulini raiyatdan ixtiyoriy yig‘ish iloji yo‘qligidan kuch ishlatishga to‘g‘ri kelgan. Bu zo‘ravonlik bilan tovon puli undirish tariximizga “Golovachyov qirg‘ini” nomi bilan kirgan. Ayni shu “kuch ishlatish” asriy qaror topgan adolatning ildiziga bolta urgan...

Islomxo‘ja ota-bobolaridan eshitganlari – xonlikda asrlar-ki amalda bo‘lgan adolat tamoyillari barbod bo‘lgani holatini tilga olmoqda. O‘zi amaldor bo‘lish orqali o‘sha adolati qayta tiklamoqchi bo‘lganini yashirmayapti. Sayyidlar avlodidan bo‘lgan, islomiy va qadim sharqona qadriyatlar ruhida tarbiya topgan inson bu so‘zlar bilan mustamlaka ostida qolgan xonlikda adolat mezonlari buzilganini afsus bilan qayd etmoqda, aslida.

Islomxo‘ja keyinchalik jaddidlar harakatiga qo‘shiladi, xonlikni to‘la qayta isloh qilish uchun kurashadi, o‘n ikki bobdan iborat islohotlar loyihisini amaliyotga aylantirishga kirishadi, ammo bosqinchilar panohida mo‘may daromadga mazaxo‘rak bo‘lib olgan bir guruh insofsiz amaldorlar tazyiqiga uchrab, 1913-yil avgustda sirli ravishda o‘ldiriladi.

Keyin yurt buziladi – turli inqiloblar sodir bo‘ladi, odamlar “oq” va “qizil”larga ajratiladi, o‘g‘il otaga, ini akaga tig‘ ko‘taradi, bir-birovni sotib jonni asrash rasmga kiradi. Yurt tarixini yozgan olimlar bevosita va bilvosita guvoh bo‘lganlari – tizimli amalga oshirilayotgan dahshatli qatag‘onlardan ko‘z yumib, moziyga sang‘ib ketadi va turli afsonalar to‘qiydi hamda shu afsonalarga olomoni ishontiradi ham.

Yuqorida bir o‘rinda olti yuz ming nufuzli aholi yashaydigan xonlikda atigi bitta zindon bo‘lganini eslatgandik. Qarangki, 1910-1912-yillarda xonlikda ko‘p o‘rinli alohida zindonga mo‘ljallangan bino qurilgan. Demak, mustamlaka davriga kelib jinoyatchilik asriy adolatning buzilishi tufayli ko‘paygan.

...Xachir mingan xonlar esa etaklarda mazaxlanuvchi shaxslar sifatida gavalantiriladi, xolos.

Ro‘zimboy HASAN

OLAM OLIMI



STENLI PRUZINER

Mashaqqatlarda muvaffaqiyat ko‘rgan nobelchi

Zamonaviy nevrologiya va molekulyar tibbiyot sohasida tanliq olim, Nobel mukofoti sohibi Stenli Pruziner o‘rni beqiyosdir. Uning prionlar deb ataluvchi yangi yuqumli biologik omilni kashf etishi neyrodegenerativ kasalliklar haqidagi tasavvurlarni tubdan o‘zgartirdi.

TARJIMAYI HOL

Stenli Pruziner 1942-yil 28-may kuni AQSHning Ayova shtatidagi Des-Moyns shahrida tug‘ilgan. Kaliforniya universitetida tibbiyot sohasida tahsil olgan va nevrologiya yo‘nalishida ilmiy faoliyat boshlagan. 1972-yildan buyon Kaliforniya universitetining San-Fransiskodagi kampusida faoliyat yuritib kelmoqda. Tibbiyot fanlari doktori, professor. Neyrodegenerativ kasalliklar instituti direktori. U 350 dan ortiq ilmiy maqola, 12 ta kitob muallifi hamda AQSHning 50 ga yaqin patentiga ega olim sifatida tanilgan.

Stenli Pruziner 1997-yilda prionlarni kashf qilgani va ularning ta‘sir mexanizmini tushuntirgani uchun fiziologiya yoki tibbiyot bo‘yicha Nobel mukofoti bilan taqdirlandi.

FAN VA SALOMATLIK

Pruziner asosiy ilmiy yo‘nalishi prionlar va ularning inson hamda hayvon organizmiga ta‘sirini o‘rganishdan iborat. Prionlar – bu miya to‘qimasida og‘ir buzilishlarni keltirib chiqaradigan mikroorganizm. Olimning tadqiqotlari natijasida prion kasalliklari irsiy, yuqumli yoki o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi mumkinligi aniqlandi. Bu esa tibbiyotda yuqumli kasalliklar haqidagi an‘anaviy nazariyalarni kengaytirishga sabab bo‘ldi. Prion kasalliklarida miya to‘qimasiga “g‘ovaksimon” holatga kelib, nerv hujayralari zararlanadi. Natijada quyidagi belgilar kuzatiladi: xotiraning pasayishi, demensiya, harakat buzilishlari, uyqusizlik, ruhiy o‘zgarishlar.

Hozirgi kunda Pruziner va uning shogirdlari prionlarning molekulyar tuzilishi, ularning tarqalish mexanizmi va boshqa neyrodegenerativ kasalliklar bilan bog‘liqligini o‘rganishni davom ettirmoqda. Bu tadqiqotlar miya kasalliklarini erta aniqlash, ularning oldini olish va samarali davolash usullarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, olimning ishlari biotexnologiya va farmakologiya sohasida yangi innovatsion yondashuvlarning shakllanishiga turki berdi.

Olimning tadqiqotlari nafaqat inson miyasi faoliyati sirlarini ochishga, balki Altsgeymer, Parkinson va boshqa og‘ir kasalliklarni davolashning yangi usullarini yaratishga ham zamin yaratmoqda.

NOBELCHI MA‘RUZASI

Ma‘lumki, Nobel mukofoti laureatlari taqdirlash marosimida nutq so‘zlaydi. Ushbu nutqlar alohida kitob holda nashr etiladi.

Stenli Pruziner ham o‘z nuqtida ilm-fan olamiga adashib kirib borgan, og‘irning ustidan, yengilning ostidan yurib kun o‘tkazayotgan “olimlar” uchun ibratli fikrlarni keltiradi:

“Odamlar mendan ko‘pincha nima sababdan bunchalik ko‘p bahs va ziddiyatlarga sabab bo‘lgan mavzudagi tadqiqotlarni qaysarlik bilan davom ettirganimni so‘rashadi. Men ularga odatda shunday javob beraman: faqat barmoq bilan sanoqli olimlarga dastlabki bosqichda juda kam sonli insonlar tushunishi va anglashi mumkin bo‘lgan butunlay yangi va favqulodda mavzular ortidan quvishdek buyuk baxt nasib etadi”.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

JAHON AYVONIDA


FOYDALI KELISHUV

Tojikiston, O‘zbekiston va Qozog‘iston “Bahri Tojik” suv omborining 2026-yil iyun-avgust oylari uchun ish rejimini kelishib oldi. Hukumatlar vakillari uch tomonlama bayonnoma imzoladi.



Qozog‘iston suv resurslari va irrigatsiya vazirligi bergan xabarga ko‘ra, yozda Turkiston viloyatining Maqtaaral va Jetisoy tumanlari dehqonlarini suv bilan ta‘minlash omborini tasdiqlangan ish rejimiga muvofiq amalga oshiriladi.

RAQAMLI QAMAL TUGATILADI



Eron prezidenti Mas‘ud Pezeshkiyoni mamlakatda internetga ulanishni tiklashni buyurdi. Bu haqda Fars davlat axborot agentligi xabar berdi.

Ushbu qaror aholining internetga kirish huquqini tiklash uchun ovoz bergan maxsus ishchi guruh xulosasidan so‘ng qabul qilingan. “Raqamli qamal” tugatishining aniq muddati ko‘rsatilmagan. Eslatib o‘tamiz, AQSH va Isroil 28-fevral kuni Eronga qarshi urush boshlagach, hukumat global tarmoqqa kirishni butunlay bloklay qo‘ygandi.


MADRID KO‘ZYOSHLARIGA ISHONADIMI?

Ispaniya poystaxtida uy-joy ijarasi qimmatlashgani 20 mingdan ortiq kishini namoyishga undadi. Bu haqda Deutsche Welle xabar berdi.



Atocha vokzali oldida boshlangan namoyish “Uy-joy biz uchun qimmatga tushmoqda. Narxlarni tushiring!” shiori ostida o‘tgan. Tashkilotchilar so‘ziga ko‘ra, besh yil ichida Madridda ijara haqi 50 foizga qimmatlashgan va oyluk to‘lov o‘rtacha 1500 yevroga ko‘tarilgan.

MIGRANTLAR UCHUN BOJ OSHIRILADI



Rossiya Davlat Dumas kelasi hafta chet el fuqarolari uchun davlat bojlarini bir necha barobar oshirish bo‘yicha qonun loyihalarini ko‘rib chiqadi.

Quyi palata spikeri Vyacheslav Volodinning ma‘lum qilishicha, Rossiya fuqaroligini olish uchun to‘lov 12 baravargacha oshadi. Vaqtincha yashash uchun ruxsatnoma 1920 rubldan 15 ming rublgacha, yashash guvohnomasi esa 6 mingdan 30 ming rublgacha ko‘tariladi.

Bundan tashqari, xorijiy ishchilarni jalb qilishga ruxsatnoma berish uchun bojni har bir mutaxassis uchun 15 ming rublgacha oshirish taklif qilinmoqda.

EBOLA XAVFI

Kongo Demokratik Respublikasida Ebola virusini yuqtirganlikda gumon qilina-yotganlar soni 900 nafardan oshdi, 200 dan ortiq bemor vafot etdi. Kasallikning tarqalishi Kongo uchun “o‘ta yuqori” darajadagi xavf tug‘dirmoqda. Bu haqda “The Guardian” xabar berdi.



Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoning qolgan qismi uchun hozircha xavf mavjud emas. Kasallikning KDR tashqarisiga tarqalish ehtimoli pastligicha qolmoqda. Shunga qaramay, ushbu epidemiyada xalqaro ahamiyatga molik favqulodda vaziyat deb tan olingan.



MILLAT FIDOYLARI

O'zbekiston tarixidagi eng ayanchli yo'qotishlardan biri – 1938-yilning 4-oktyabr oqshomi. Xalqimizning buyuk shaxslari, millat taraqqiyosi uchun kurashgan ziyolilari, oydinlari va necha yuzlab oilaning yostig'ini quritgan "katta terror" yuhosi Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev hayotini ham shafqatsiz domiga tortib ketdi.



Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev

millat kelajagi qay yo'ldan borishi haqida og'ir tanlov turardi. Tursunxo'jayevning partiya safiga o'tishi shu murakkab siyosiy jarayonlar bilan bog'liq edi. Ayni shu yillardan boshlab u davlat va jamoat boshqaruvida faol ko'rinish boshladi. Turkiston o'lkasi Oziq-ovqat xalq komissarligining Moskvadagi vakili, Toshkent Eski shahar soveti ijroiya qo'mitasi raisi o'rinosari, Turkiston ASSR Sog'liqni saqlash xalq komissari, Milliy ishlar va Tashqi ishlar xalq komissari bo'lib ishladi. Keyinchalik Turkiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasi kotibi, Buxoro Kompartiyasi Markaziy qo'mitasining mas'ul kotibi sifatida ham faoliyat olib bordi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Savdo va sanoat xalq noziri, Turkiston ASSR Markaziy xalq xo'jaligi kengashi raisi o'rinosari, Pomir oblasti inqilobiy qo'mitasi raisi lavozimlaridagi faoliyati uning davlat boshqaruvida katta tajriba orttirganini ko'rsatadi.

1923-1924-yillarda Xorazm Xalq Sovet Respublikasida ijtimoiy ta'minot, savdo va sanoat xalq noziri, Nozirlar sho'rosi raisi o'rinosari, Davlat reja komissiyasi raisi hamda Markaziy ijroiya qo'mitasi raisi vazifalarida ishladi. So'ngra Xorazm viloyati inqilobiy qo'mitasi raisi etib tayinlandi.

Turkistonda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilgach, SSSR Mehnat va mudofaa kengashining O'zbekiston SSR bo'yicha vakili, O'rta Osiyo suv xo'jaligi qurilishi tashkiloti boshlig'i, SSSR Yer ishleri xalq komissarligining O'rta Osiyo bo'yicha vakili kabi mas'ul lavozimlarda mehnat qildi. Shuningdek, 1935-1937-yillarda Qozog'iston SSR Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi boshlig'i sifatida faoliyat yuritdi.

Davlat va jamoat ishlaridagi mas'uliyat tobora ortib borayotganiga qaramay, Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev o'z ustida ishlashni bir zum to'xtatmadi. 1923-yili O'rta Osiyo bilim yurti Ijtimoiy fanlar fakultetiga o'qishga kirdi. Biroq o'ta murakkab siyosiy jarayonlar, zimmasiga yuklangan vazifalar tahsilni to'liq yakunlashiga imkon bermadi.

Taassufki, mana shunday serqirra faoliyat uni qatag'on mashinasining nishonlaridan biriga aylantirdi. Buni biz yaqinda O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati arxivida saqlanayotgan hujjatlar bilan tanishish asosida yana bir bor angladik. 1937-1938-yillarga oid tergov materiallarida Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev nomi qayta-qayta tilga olinadi. Ular orasida ayrim ko'rsatmalar alohida diqqatni tortadi.

Xususan, 1937-yil 9-oktyabrda bo'lgan so'roq bayonnomasida uning nomini "maxfiy tashkilotlar" va "chet el razvedkasi" bilan bog'lashga uriniladi. Bayonnomada yozilishicha, voqea 1922-yili Buxoroda kechgan. Bu payt Buxoro hali inqilobdan keyingi beqaror siyosiy muhitdan chiqib ulgurmay, tergovga tortilgan shaxs esa o'sha vaqtda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi harbiy noziri yordamchisi vazifasida ishlagan. So'roq davomida u bir kuni Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayevning uyida tunab qolganini aytadi. Bayon etishicha, suhbatni oddiy gaplardan boshlab, asta-sekin siyosiy mavzularga buradi. Tergov talqiniga ko'ra, nozir yordamchisi unga "ikkimiz ham musulmonimiz", "milliy qarashlaringiz menga ma'lum" qabilida gaplar aytib, ishonch muhitini yaratishga urinadi. So'ng go'yo Angliya yordami bilan Turkiston mustaqillikka erishishi mumkinligi haqida fikr tashlaydi. Tursunxo'jayev bu gaplarga ehtiyotkorona munosabat bildirib, "O'zbekistonning mustaqillikka erishishi oson ish emas, buning uchun uzoq vaqt talab etiladi", deya ogohlantirgani qayd etiladi hujjatda. Biroq, tergovchilar aynan shu jummalarni keyinchalik "millatchilik" va "aksilinqilobiy niyat" sifatida "delo"ga tikib qo'yishadi.

Keyingi so'roqlarda polkovnik Frederik Marshman Beyli nomi tilga olinib, Turkistondagi ziyolilar uning "topshiriqlari" asosida harakat qilgan, degan da'volar o'rtaq tashlanadi. Bundan keyingi ko'rsatmalarda voqealar tobora kengaytirilib, tergovchilar oldindan tayyorlab qo'ygan ssenariyga moslashtiriladi. Endi gap go'yo butun Turkiston bo'ylab tarqalgan "maxfiy millatchi tarmoq" haqida boradi. Tergov ko'rsatmasida polkovnik Beylining Tursunxo'jayev, Munavvar qori va To'raqulov bilan uchrashgani haqida gap boradi. Tergovchilar aynan shu nuqtaga qattiq yopishib oladi. Chunki millatning

eng taniqli ziyolilari va davlat arboblari bir-biri bilan bog'lash orqali katta "aksilinqilobiy markaz" haqidagi tasavvurni shakllantirish mumkin edi. Ayniqsa, "Milliy ittihad" va "Ittihad va taraqqiy" bilan bog'liq tergov materiallarida har qanday milliy qarash yoki mustaqillik haqidagi fikr ataylab "burjua millatchiligi", har qanday tanqid esa "sovet hokimiyatiga qarshi qo'poruvchilik" sifatida talqin qilingani yaqqol ko'rinadi.

1937-yil 18-oktyabrda olingan boshqa ko'rsatmalar bu manzaradagi qora rangni yanada quyuqlashtiradi. Unda "Ittihad va taraqqiy" tashkiloti Markaziy qo'mitasi a'zolari sifatida Munavvar qori Abdurashidxonov, G'ulom Ikromov, Abdulhay Tojiyev kabi ko'plab atoqli shaxslar qatorida Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev nomi ham keltirib o'tiladi. Tergov materiallarida bu tashkilotning maqsadi Sovet ittifoqidan ajralib chiqish, Turkistonda "mustaqil burjua respublikasi" tuzish va kapitalizmni qayta tiklash bo'lgani iddao qilinadi.

1938-yilga kelib, tergov ishleri yanada shafqatsiz tus oldi. Endi NKVD uchun alohida shaxslarni aylashning o'zi yetarli emas edi, ulardan "xufiy tashkilot" haqidagi tasavvurni yaratish talab qilinardi. Mahbuslar yuzma-yuz so'roqqa tutilib, tazyiq ostida bir-biriga qarshi ko'rsatma berishga majbur qilinardi. Ana shunday so'roqlardan biri 1938-yil 9-aprel kuni Toshkentda Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev va Odil Islomov ishtirokida o'tkaziladi.

Tergov xonasidagi muhitni tasavvur qilish qiyin emas: bir tomonda oylab davom etgan so'roqlardan charchagan, ruhan sindirilgan mahbuslar, ikkinchi tomonda har bir javobdan yangi ayblov yasashga urinayotgan tergovchilar. Bayonnomadan ko'rinishicha, avval ikki mahbusning bir-birini tanish yo tanimasligi haqida rasmiy savollar beriladi. Har ikkisi ham 1918-yildan buyon turli sovet-xo'jalik tashkilotlarida ishlagani orqali tanish ekanini tasdiqlaydi. Ammo tergovchilarni bu emas, ularning "aksilinqilobiy tashkilot" bilan bog'liqligini isbotlash qiziqtirardi.

Bo'htonlar oxiri shu bo'ldiki, Toshkentda bo'lib o'tgan SSSR Oliy Sudi harbiy kollegiyasi sayyor majlisida Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev otuvga hukm qilindi. Hukm o'sha kuniyiq ijro etilib, millatning yana bir ma'rifati, fidoyi vakili qurbonga aylandi.

Qahramonimizning ayanchli taqdiri beixtiyor shunday naqli esa soladi: "Fisq-u fasod juda qulay narsa: bir so'z bilan hamla qilindi-yu, himoya uchun esa qancha-qancha sahifalar kerak".

Rustambek SHAMUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

AZIZ XOTIRA



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Mamasharif Karimov – 1882-yili Marg'ilon shahrida tug'ilgan. Eski maktabda o'qigan. Hunarmand to'quvchi. Marg'ilon shahri Qalandarxon uchastkasida volost boshqaruvchisi, shahar dumasi va Qo'qon muxtoriyati a'zosi, "Milliy ittihad"ning faol rahbarlaridan bo'lgan. Bosmachilikda aloqasi bo'lganlikda ayblanib, 1920-yili Marg'ildon favqulodda komissiya tomonidan hibsga olingan. Ammo Farg'ona viloyati rahbariyati Shomansur Alixo'jayev va Inomjon Xidiraliyev tomonidan ozod etilgan. "Milliy ittihad"ning topshirig'i bilan partiya direktivasini buzib quloqlarni o'z himoyasiga olganlikda, Marg'ildonagi aksilinqilobiy tashkilot "Azadayev"ning rahbarligida shahar sovetiga bo'lgan saylov vaqtida Marg'ilon ko'chalari bo'ylab sovetlarga qarshi targ'ibot-tashviqot olib borganlikda, Fayzulla Xo'jayevni maqtaganlikda ayblangan. Mamasharif Karimov 1937-yil 13-sentyabrda Marg'ildon hibsga olingan. Tergovda unga nisbatan bir qancha savol-javoblar va qiyoslar qo'llangan. 1937-yil 27-noyabrda Mamasharif Karimov aksilinqilobiy faoliyati uchun 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 13-sentyabrda hibsga olingan.

1939-yil 11-dekabrda NKVD Xangota 3-turmasidagi 204775-sonli mahbus Mamasharif Karimov tegishli joylarga 7 marta xat bilan murojaat etgan, ammo natija bo'lmagan. 1941-yil 27-mayda Davlat xavfsizligi xodimi Lisenkoning javob xatida Mamasharif Karimovning arizasi javobsiz qoldirilishi, uni 10 yil ozodlikdan mahrum qilish to'g'risidagi qaror o'z kuchida qolishi haqida xabar berilgan.

Jalol Sa'diyev – 1901-yili Andijon shahrida tug'ilgan. 1929-yil 8-noyabrda Namangandagi "Milliy istiqlol" tashkiloti a'zosi ekanligi uchun OGPU xodimlari tomonidan hibsga olingan. OGPUning 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-, 11-bandlari bilan ayblanib, 5 yil konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 30-martda reabilitatsiya qilingan.

Komilbek Norbekov – 1885-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Eski uslubdagi maktabda o'qigan. Keyinchalik o'z hisobidan jadid maktabini ochgan. Inqilobgacha "Jamiyati xayriya"ning faol a'zosi edi. 1918-yilgacha savdo bilan mashg'ul bo'lgan. 1921-yildan 1930-yil martgacha Respublika xalq maorifi komissarligi kitob do'konida mudirlik qilgan.

Komilbek Norbekov Sovet hokimiyatini ag'darish va "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkilotining faoliyatida ishtirok etganlikda ayblanib, O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 67-moddasi bilan javobgarlikka tortilgan.

U uch yil muddatga G'arbiy Sibirga surgun qilingan. Qamoq jazosini Novosibirskda o'tagan. 1933-yili ukasi Karimbek Norbekov bilan birgalikda surgundan qochgan va G'arbiy Xitoyga muhojir bo'lib chiqib ketgan. U yerdan 1935-yil boshlarida yashirin tarzda qaytib kelgan. 1935-yil 9-iyunda 2 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Shartii ravishda shoshilinch qamoqdan ozod qilingan.

O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi "Uchligi"ning 1938-yil 22-sentyabrda qarori bilan Komilbek Norbekov 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Jazo muddati o'sha kundan hisoblangan. Keyinchalik 1990-yil 19-fevralda u reabilitatsiya qilingan.

Karimbek Norbekov – 1888-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Eski uslubdagi maktabda o'qigan. Inqilobga qadar savdogarlik qilgan. "Ulamo jamiyati", "Sho'royi islom" a'zosi, 1917-yil oktyabrda madaniy-ma'rifiy soha bo'yicha idorada xizmatchi, 1918-yildan "Milliy ittihad" tashkilotining faol a'zosi bo'lgan.

O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi "Uchligi"ning 1938-yil 22-sentyabrda qarori bilan Karimbek Norbekov 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Jazo muddati o'sha kundan hisoblangan. 1990-yili 19-fevralda reabilitatsiya qilingan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonida).

JARAYON



Toshkentning Eski shahar mavzesida joylashgan Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi yurtingizdagi nufuzli ta'lim muassasalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. 2019-yil 26-dekabrda faoliyat boshlagan maktabda ayni vaqtda 210 nafar o'quvchi tahsil oladi. Ularga 30 nafar tajribali, jumladan, 20 nafar milliy va xalqaro sertifikatlariga ega oliy toifali pedagoglar ilg'or ta'lim dasturlariga asosida bilim berib kelmoqda. Ustozlar har bir o'quvchini Yangi O'zbekistonning bunyodkorlari sifatida kamol topirishni oliy maqsad qilib qo'ygan.

Maktab binosiga kirishingiz bilan milliy qadriyatlar va an'analarni seziladi. Har bir o'quvchining o'zbekona libosi, lutfi va odobi ulug' yozuvchining "O'tkan kunlar" idagi Otabeg-u Kumushni yodga solishini ko'rib, maktab o'zida zamonaviy ta'lim va milliy ruh uyg'unligini jamlay olganiga guvoh bo'lasiz. Qodiriy vorislarining fazilatlarini maktabga tez-tez tashrif

buyuruvchi xorijiy mehmonlarning ham e'tiborini tortgani shundan.

Kuni kecha xalqaro fan olimpiadasini o'tkazish uchun ham aynan mazkur ijod maktabi tanlab olinib, yuqori sinf o'quvchilarining intellektual salohiyati xalqaro ekspertlar tomonidan mushohada qilindi. Shuningdek, mehmon ijodkorlar maktab hayoti bilan qiziqib, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda tez-tez o'tkazib turiladigan mahorat darslari va mushoira kechalari, boshqa ijod maktablari bilan o'quvchi almashinuv dasturlari, zamonaviy dunyo, milliy g'oya va vatanparvarlik tuyg'ulari asosida tashkil etilgan turli to'garak va qo'shimcha mashg'ulotlar haqida ham iliq fikrlar bildirishdi.

– **Maktabimizni boshqa ijod maktablaridan farqlab turuvchi alohida jihatlari ko'p**, – deydi maktab direktori Shoira Sodiqova. – *Bu o'rinda, buyurtma asosida keltirilgan 86 ta maxsus o'quv partasi xususida aytib o'tmasam bo'lmaydi. Ular jadidlar sa'y-harakatlari bilan tashkil etilgan yangi usul maktablarida joriy qilingan. Tashrif buyuruvchilar maktabimizdagi tarixiy eksponatlarni ko'rganda, hayratini yashirmaydi. Moddiy-texnik bazamiz zamon talablariga to'liq javob beradi. 23 sinf xonasining 18 tasida elektron doskalar, 113 dona so'nggi rumumdagi kompyuter jamlanmalari, media to'garagimiz uchun maxsus jihozlangan tasvirga olish va ovoz yozish studiyasi shular jumlasidan. O'quvchilarimiz ijodkor emasmi, tez-tez yangi loyihalarni bilan kiradi ulamiga. Ularning takliflariga tayanib, studiyada "Millat orzusi" nomli choraklik tahliiy-informatsion ko'rsatuv ham tayyorlanadi.*

Maktab direktori bilan suhbatimiz asnosida o'quvchi almashinuv dasturi to'g'risida batafsilroq ma'lumot berishni so'radik. Dasturga ko'ra, maktab har oy boshqa ijod maktablari bilan o'quvchi almashar ekan. Ya'ni Abdulla Qodiriy ijod maktabidan saralab olingan o'n nafar o'quvchi bir hafta davomida viloyatlardan biridagi ijod maktabida o'qib keladi. O'z navbatida, o'sha ijod maktabining ham o'n nafar o'quvchisi



olti o'quv kunini bu maktabda o'tkazadi. Joy, muhit yangilanuvchi fikr va g'oyalarning ham yangilanishiga sabab bo'ladi. Jarayonda o'quvchilar nafaqat birga o'qiydi, balki birga yashaydilar ham.

Maktabning o'tgan yili foydalanishga topshirilgan 180 o'rinni yotoqxonasida o'quvchilar o'zlarini yudagidek his qilishlari uchun barcha shart-sharoit muhayyo. O'g'il bolalar va qizlar uchun alohida kir yuvish va quritish xonalari, dazmol-

xonalar, ortiqcha kiyim-kechaklar saqlanadigan garderoab xonalari, oyoq kiyimlar uchun maxsus poyabzalxonalar, yotoqxonalar hovlisiga o'rnatilgan ko'chma boloxonalar ilgari biror ta'lim muassasasida tashkil etilmagan. 210 o'rinni oshxonada o'quvchining besh mahal bepul ovqatlanilishi ota-onalarning ko'nglini to'qlaydi. Bu yerda ustoz-murabbiylardan xizmatchilargacha o'quvchi-yoshlarga

kirib, 1400 maksimal ball bilan Yangi O'zbekiston universitetiga imtihonsiz qabul qilinadigan bo'ldi. Yana shu kungacha yosh qalamkashlardan to'rt nafarining ilk kitoblari chop etilib, "Qodiriy vorislari" degan sharafli nomga sazovor bo'ldi.

Yana bir quvonarli holat, shu maktabda ta'lim olayotgan Abdulla Qodiriyning evaralari Samariddin va Nozima Qodiriyalar ham bugun ijod namunalari bilan tengdoshlari orasida ko'zga ko'rinish boshladi.

Har bir ta'lim dargohining o'z tamoyillari, o'ziga xos tarbiya taktikasi bo'ladi. Abdulla Qodiriy ijod maktabida ham o'quvchilar qobiliyatining qamrovini kengaytirish yo'lida yana bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, o'quvchilar orasidan o'n nafari saylab olinib, "Kelajak vazirlari harakati" ichki tizimi ishga tushirilgan. Ular maktabdagi ekologiya, sport, madaniyat, ma'naviyat kabi muhim yo'nalishlarga mutasaddi shaxs sifatida faoliyat olib boradi. Shuning barobarida o'zlarida boshqaruvchilik mahoratini shakllantiradi.

Maktabda Koreya Respublikasidan chaqirilgan ikki pedagog – Xuisun Xvang va Park Yeunbin ham faoliyat olib boradi. O'quvchilar ulardan nafaqat ta'lim oladi, balki Koreya tarixi, madaniyati, ijtimoiy hayoti bilan bog'liq suhbatlar qurishadi.

Ko'rganimiz, kuzatganimizdek, ulug' adiblar nomlari bilan ataluvchi ijod maktablari Yangi O'zbekistonning ilg'or ta'lim maskanlariga aylanib bormoqda. Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabida ham yoshlar zamonaviy elektron resurslar, interaktiv darslar orqali oltin avlod sifatida kamol topayotgani quvonarlidir.

Muhayo RUSTAMOVA

JADIDLAR ORZUSIDAGI MAKTAB



“JADID” GAZETASI JAMOASI HAMDA MUASSISLARIMIZ —

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI,

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI,

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI,

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI,

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

**O‘zbekiston xalqini mehr va muruvvat bayrami –
Qurbon hayiti bilan muborakbod etadi.
Xonadoningizdan fayz, baraka arimasin,
aziz yurtdoshlar!**

✍️ KO‘MAK

MILLAT, MINNAT VA HIMMAT

Kuni kecha O‘zbekistondan Afg‘onistonga Qurbon hayiti munosabati bilan gumanitar yordam yuborilgani aks etgan bir necha lavhalarni ko‘rdim. Balx viloyatining Hayraton shahrida bu yordamni topshirish marosimi bo‘lib o‘tgan ekan. Ochig‘ini aytсам, shu xabarni o‘qib, ichimdan quvondim. Ilgari ham bunday mazmundagi xabarlar ko‘zim tushardi. Ammo daryoning narigi sohilida qanday hayot kechayotganini o‘z tanamda his qilib ko‘rmagunimcha, bu yordamlarning asl qiymati va ma‘nosini to‘liq anglamagan ekanman.

Biz ko‘pincha Afg‘oniston deganda urush, muhtojlik, og‘ir turmushni tasavvur qilamiz. Lekin u yerda ham biz bilan bir tilda so‘zlashadigan, bir qo‘shiqni eshitib hayajonlanadigan, Navoiyni o‘qib qalb tori titraydigan o‘zbeklar yashaydi. Balx, Bag‘lon, Badaxshon, Andxo‘y, Maymana, Shibirg‘on, Oybek kabi hududlarda qanchadan qancha qardoshlarimiz bor.

Yaqinda O‘zbekistonning turli hududlarida bo‘lgani kabi Afg‘onistonning shimoliy viloyatlarida ham halokatli suv toshqinlari yuz berdi. Albatta, bizdagi tezkorlik, texnik imkoniyatlar, Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarining jasorati va

yuqori darajadagi ko‘nikmasini boshqa davlatlardagi holat bilan taqqoslash o‘rinsiz. Biroq qo‘shni mamlakatning bunday kutilmagan ofatlarga tayyorgarligi unchalik yuqori emasligini, buning ustiga o‘sha hududlarda o‘zbeklar yashashini hisobga olsak, yuborilgan ko‘makning mohiyati yanada ravshanroq namoyon bo‘ladi. Ana shunday paytda qo‘l uzatishning o‘zi katta gap. Chunki qiyin kunda inson eng avval kim uni eslaganini unutmaydi. Bu ko‘mak tarkibida asosan oziq-ovqat mahsulotlari va birinchi tez tibbiy yordam vositalari borligi aytiladi.

O‘ylab qarasam, xalqimiz azaldan “Qo‘shning tinch – sen tinch”, “Qo‘shning oshi totli”, “G‘ilam sotsang, qo‘shningga sot”, degan maqol-u matal bilan yashagan. Ayniqsa, hayit kunlarida bu qadriyat yanada kuchli seziladi. Arafada qo‘shniga osh chiqarish odatimizning o‘zi ham shuning ifodasi emasmi?

Hayitning mohiyati, menimcha, faqat “jonliq so‘yib, qon-pon chiqarib yuborish”da emas, balki inson o‘z nafsini, ochko‘zligini va beparvoligini ham ezgulik yo‘lida qurbon qilishidir. Agar bayram, avvalo, qalbn o‘zgartirsa, uning shunchaki kundalik marosim yoki odatdan farqi qolmaydi.

Shu ma‘noda, Afg‘onistondagi

o‘zbeklarga va u yerdagi boshqa muhtoj insonlarga yuborilgan bu yordamni qardoshlik, millatdoshlik va yuksak insonparvarlikning ramzi deb qabul qilish o‘rinli. Ba‘zan uzundan uzoq siyosiy nutqlardan ko‘ra, bir qop un yoki bir quti dori ko‘proq ma‘no anglatadi.

Afg‘onistonga bo‘lgan safarimdan xabardorsiz ehtimol. O‘shanda shu mavzuda ham ancha gurlang bo‘lgandi. Bir kishi bu yordamlar haqida iliq fikrlar bildirgach, menga ham bir og‘iz gapni yurtdoshlarimga yetkazib qo‘yishni tayinlagandi. Nazarimda, hozir ayni fursati...

“Sizlar yaxshi-yomon kunimizda yonimizda bo‘ldingiz, rahmat. Falon to‘nna yordam yuborildi, degan xabarlar chiqadi – qulluq. Aslida, sizlar jo‘natgan oziq-ovqat bilan ham, usiz ham bir kunimizni ko‘ramiz, shukur. Lekin bu yerda boshqa gap bor: e‘tibor, hurmat, mehr... Chunki uning ortida “Siz yolg‘iz emassiz”, “Daryo ortidagi o‘zbeklarni unutmadi”, degan tuyg‘u turadi. Biz shunisiga quvonamiz. Endi asosiy gapga o‘tsam, xo‘sh...”

Suhbat shu nuqtaga kelganda, otaxonning fikrini bo‘lishga majburman. Undan oldin aytadigan ikki og‘iz so‘zim bor. Bu yig‘inda, negadir, shu kabi hamkor davlatlarda tabiiy ofat bo‘lgan chog‘larda qilingan yaxshilikni ham go‘yo o‘z

cho‘ntagidan berayotgandek gapiradigan tarmoqdagi “minnatchilar” xayolimdan o‘tdi va negadir, ko‘nglim, g‘ash tortdi. “O‘zimizda ham muhtojlar bor-ku, avval shularga yordam qilish kerak”, deb yozganlar ham bo‘ladi. Lekin masalaning boshqa tomoni haqida deyarli hech kim lom-mim demaydi.

Har yili bir holat takrorlanadi. Qurbon hayitida keragidan ortiq jonliq so‘yiladi. Ko‘chalarda qo‘y va molning kalla-poychasi, terilari “egamlab” yotadi, ariqlar ifloslanadi. Pashsha ko‘payib, turli kasalliklar tarqaladi. Holbuki, Alloh taolo o‘z kalomida: “Yenglar, ichinglar, ammo isrof qilmanglar. Zero, U isrof qilguvchilarni sevmas” (A‘rof surasi, 31-oyat), degan.

Ammo mana shunday ulug‘ kunlarda biz nima qilamiz? Qo‘sha-qo‘sha hashamatli uylari, qator-qator mashinalari bor, qorni to‘q, usti bot odamlarga ehson ulashamiz. Tonnalab osh pishiramiz, nafsimiz hakalak otib, do‘xtirga shoshamiz. Oqibatda bu noz-ne‘matlarning huzurini chiqindi qutilari-yu daydi itlar ko‘rgani qoladi.

Xo‘sh, endi aytinch, shuncha imkoniyatimiz bor ekan, qo‘shni davlatda suv toshqinlaridan aziyat chekkan muhtoj insonlarga ikki qop un yuborish adolatsizlikmi? Qani bunda xolislik? Axir, chin mo‘min kishi hayoti davomida doim boshqalarga



yaxshilik sog‘inadi. Savobli amallarga yetaklovchi yo‘llarni axtaradi. Chunki ezgulik bandani jannatga olib borishi Qur‘oni Karim oyatlari va Hadisi shariflarda juda ko‘p bora ta‘kidlangan. Zero, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam “Sizlardan birortangiz o‘zi yaxshi ko‘rgan narsasini birodariga ravo ko‘rmaguncha mo‘min bo‘la olmaydi”, deganlar (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyati).

Ammo o‘shanda Afg‘onistonda yashayotgan o‘zbeklar meni juda uyaltirdi. Haligi otaxonning gapining davomi esa yanada ta‘sirli bo‘ldi:

“Sizlar bizga oziq-ovqat yubor-manglar endi... Biz bugun qotgan non yesak ham, bir kunimiz o‘tadi, ochdan o‘lmaymiz. Sizlar bizga kitob yuboringlar... Kitobdan yuz yillab foydalanamiz. Farzandlarimiz ilmi, qalbimiz ma‘rifat nuriga oshno bo‘ladi. Qadim O‘zbekiston diyori azaldan ilm-u ma‘rifat maskani bo‘lgan... Bizga kitob yuboringlar...”

Ana endi xulosa sizdan...

Shahriyor SHAVKAT

Jadid
adabiy, ilmiy-ma‘rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Mas‘ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Rustamova

Adadi – 18 477

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 005

Lotin yozuvida – 11 472

Media kuzatuvchilar – 84 098

Buyurtma: G – 540

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko‘rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6 6

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manziliimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:30

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O‘ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA’NAVIYAT
VA MA’RIFAT MARKAZI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI
QO‘LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI



“SHAHIDLAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDI